

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

G‘AYBULLAYEV SOHIBJON G‘AYBULLAYEVICH

**MAJBURIYATLAR BAJARILISHINI TA‘MINLASHNI NAZARDA
TUTADIGAN BITIMLARNI FUQAROLIK-HUQUQIY TARTIBGA
SOLINISHI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of the abstract of doctoral dissertation

Оглавление автореферата докторской диссертации

G‘aybullayev Sohibjon G‘aybullayevich

Majburiyatlar bajarilishini ta‘minlashni nazarda tutadigan bitimlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi.....3

Гайбуллаев Соhibжон Гайбуллаевич

Гражданско-правовое регулирование сделок, предусматривающих обеспечение исполнения обязательств.....20

Gaibullaev Sokhibzhon Gaibullaevich

Civil regulation of transactions providing for ensuring the fulfillment of obligations.....38

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....42

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

G‘AYBULLAYEV SOXIBJON G‘AYBULLAYEVICH

**MAJBURIYATLAR BAJARILISHINI TA‘MINLASHNI NAZARDA
TUTADIGAN BITIMLARNI FUQAROLIK-HUQUQIY TARTIBGA
SOLINISHI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Yu1432 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsul.uz) va “ZiyoNET” axborot-ta’lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Imomov Nurillo Fayzullayevich yuridik fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Yakubov Axtam Nusratullayevich yuridik fanlar doktori, dotsent Raximov Doniyor Baxtiyorovich yuridik fanlar doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 27-may soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (998971) 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1392-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent sh., Amir Temur ko‘chasi, 13. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 8-may kuni tarqatildi.
(2025-yil «8-may 74 raqamli reestr bayonnomasi)).

I.R. Rustambekov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, yuridik fanlar doktori, professor

D.Y. Xabibullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori,
professor

B.K. Xodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik
fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda fuqarolik muomalasi ishtirokchilari tomonidan majburiyatlar bajarilishi ta'minlashda ko'char mol-mulklarni qo'llashga alohida e'tibora qaratiladi. Zero, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslarni olishga bo'lgan imkoniyatida ko'char mulklarni ta'minot sifatida foydalanish imkoniyatlari yuqoridir. Jahon banki axborotiga ko'ra rivojlanayotgan davlatlarda 400 milliondan ortiq kichik va o'rta korxonalar mavjud bo'lib, shulardan faqat 14 % qarz yoki kredit liniyalariga ega bo'lsa, qariyb 50 % moliyaviy resurslarni olish imkoniyatiga ega emas. Bu o'z navbatida, qarz va kredit olishda ta'minot uchun ko'chmas mulkning mavjud emasligi hamda ko'char mulklar garovining oshkoraligi va ochiqligini ta'minlash imkoniyatning mavjud emasligi bilan bog'liqdir. Shu sababli ta'minlovchi bitimlar orqali ko'char mol-mulklarni majburiyat bajarilishini ta'minlash vositasiga aylantirish hamda bunday ta'minotni oshkorligi va ochiqligini ta'minlashning garov reyestrini joriy etish dolzarb tus kasb etadi.

Jahonda ta'minlovchi bitimlarni tushinish, talqin etish va qo'llashga nisbatan bir qator ilmiy nazariyalar va doktrinial yondashuvlar mavjud. Jumladan, Germaniyada noposessor garov taqiqlangan, biroq ta'minlovchi ashyoni topshirishga ruxsat berilgan va Gollandiyada, aksincha, faqat noposessor garovga ruxsat berilgan. Shuningdek, ushbu huquqiy institutlar (noposessor garov va ta'minlovchi bitimlar) birgalikda amal qiladigan mamlakatlarning uchinchi guruhi (Ispaniya, Polsha, Chernogoriya) ham mavjud. Uchinchi guruhga 2018-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi ham qo'shilgan. Bunda ta'minlovchi bitimlarni garov instituti bilan nisbati, garov narsasi bo'lgan ko'char mol-mulknini garov qo'yuvchida qoldirilishi, ta'minlovchi mol-mulk nisbatan mulk huquqining shartnoma amal qilish davrida kreditorda qolishi kabi masalalar turli davlatlar doktrinalarida turlicha talqin etilishi bu borada ilmiy tadqiqotlar davom etayotganligini ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda ta'minlovchi bitimlar konstruksiyani e'tirof etish va uning mohiyatini ta'minlash funksiyasiga moslashtirishi 2018-yildan boshlandi va ushbu bitimlar amal qilishi borasida tegishli islohot amalga oshirildi. Bu o'z navbatida, ta'minlovchi bitimlarni kreditor huquqlari va manfaatlarini himoya qilishning samarali mexanizmini yaratish orqali mamlakat fuqarolik qonunchiligini investorlar uchun jozibadorligini oshirish hamda uchinchi shaxslarning manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan ta'minlovchi bitimlarning oshkorligi va ochiqligi bo'yicha garov reyestrini joriy etilishi bilan bog'liqdir. Masalan Markaziy bank huzuridagi Garov reyestri davlat unitar korxonasining hisobotida keltirilishicha "2024-yil 1-yanvar holatiga garov reyestri ma'lumotlar bazasida jami aktiv yozuvlar soni 1 564,4 mingtani tashkil etib, 2023-yilda mavjud yozuvlarga 79,6 mingdan ortiq o'zgartirishlar kiritilgan¹. Bu ma'lumotlardan anglashiladiki, mamlakatimizda ta'minlovchi bitimlarning mohiyatini tadqiq etish, an'anaviy ta'minlash usullari va ta'minlovchi bitimlar konstruksiyasining farqli jihatlarini ochib berish, ta'minlovchi bitimlarda mulk huquqining kreditor va qarzdor o'rtasida taqsimlanishi, undiruvni

¹ Markaziy bank huzuridagi "Garov reyestri" DUKning 2023 yildagi faoliyati bo'yicha hisoboti // https://www.garov.uz/open_data/a_report/51

ta'minlash narsasiga qaratish soddalashtirilgan tartibini tahlil qilish dolzarb tus kasb etadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1996), "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi (1990), "Ijara to'g'risida"gi (1991) "Garov to'g'risida"gi (1998), "Lizing to'g'risida"gi (1999), "Ipoteka to'g'risida"gi (2006), "Kreditorlarni huquqiy jihatdan himoya qilish kuchaytirilishi hamda tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi (2019) Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kreditorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 23-noyabrdagi

PQ-4026-son Qarori, "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmonlari va sohaga oid boshqa qonun hujjatlarining amalga oshirilishida muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni takomillashtirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ta'minlovchi bitimlarning fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi masalasi milliy sivilistika uchun nisbatan yangi institut sanaladi. Garchi ta'minlovchi bitimlarning ayrim turlari muayyan belgilar asosida milliy fuqarolik huquqida amal qilib kelgan bo'lsada, ularni majburiyatlar bajarilishini an'anaviy ta'minlash usullaridan alohida holda o'rganish borasi maxsus tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Shunday bo'lsada majburiyatlar bajarilishini ta'minlash usullari negizida ta'minlash masalalari H.R. Rahmonqulov, I.B. Zokirov, O.Oqyulov, Sh.N. Ro'zinazarov, D.M. Karaxodjayeva, N.F. Imomov, J.I. Babayev va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Bevosita majburiyatlar bajarilishini ta'minlash negizida ta'minlovchi bitimlar D. Raximov tomonidan doktorlik dissertatsiya darajasida qisman ko'rib chiqilganligini ham e'tirof etish zarur. O. Odayev esa neustoyka masalasini tadqiq qilgan. Ta'minlovchi bitimlarning o'ziga xos turi sifatida ijara munosabatlari S.B. Boboqulov, R.J. Ro'ziyev, lizing masalalari O.T. Hazratqulov, Sh. Bozarov asarlarida tadqiq etilgan bo'lsa, REPO bitimlari M.E. Bobojonovning dissertatsiyasida ko'rib chiqilgan.

MDH mamlakatlarida ta'minlovchi bitimlar, shu jumladan titulli ta'minlash masalalari S. Sarbash, V. Zorin, Ye.R. Usmanova, R.S. Bevzenko, A.V. Latinsev, Yu.N. Alferova, A.V. Tepkina, P.V. Xlyustov kabi olimlarning asarlarida u yoki bu darajada tadqiq qilingan.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan L. Gullifer, R. Philip, J. Hallebeek, H. Dondorp, G. Grant, B. Akkermans, R.M. Contino, J.H. Dalhuisen, F. Heywood, M. Safavianlarning asarlarida ta'minlovchi bitimlarning ayrim masalalari ko'rib chiqilgan.

Biroq mazkur olimlarning asarlarida ta'minlovchi bitimlarning fuqarolik-huquqiy tartibga solishning o'ziga xos jihatlari, ta'minlovchi bitim

konstruksiyasining mohiyati hamda ta'minlovchi bitimlar bo'yicha kreditor huquqlarini ta'minlash uchun undiruvni ta'minlash narsasiga qaratish masalalari o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat yuridik universitetining "Majburiyatlar bajarilishini ta'minlashni nazarda tutadigan bitimlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi" ilmiy – tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ustuvor yo'nalishlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi majburiyatlar bajarilishini ta'minlashni nazarda tutadigan bitimlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solinishini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ta'minlovchi bitim tushunchasi va uning mohiyatiga oid ilmiy-nazariy qarashlarni tahlil qilish;

ta'minlovchi bitimlar qo'llanilish sohalarining tavsifini amalga oshirish va bu borada muayyan xulosalarni shakllantirish;

ta'minlovchi bitimlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish asoslarining rivojlanishi genezisini o'rganish;

ta'minlovchi bitimlar tizimi va ularning turlarga bo'lishning mezonlarini aniqlashga oid yondashuvlarni tadqiq etish;

ta'minlovchi bitim sifatida lizing shartnomasining o'ziga xos jihatlarini ochib berish;

oldi-sotdi munosabatlarida ta'minlovchi bitimlarning amal qilish muammolarini aniqlash va ularni hal qilish yo'llarini ishlab chiqish;

ijara va ta'minlovchi bitimlarning boshqa turlariga umumiy tavsifini berish;

garov reyestrining ta'minlovchi bitimlarni amalga oshirilishida tutgan o'rin va ahamiyatini yoritish;

ta'minlovchi bitimlarga oid xorijiy mamlakatlar tajribasining tahlilini amalga oshirish;

ta'minlovchi bitimlariga oid qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalarni shakllantirish.

Tadqiqotning obykti ta'minlovchi bitimlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini ta'minlovchi bitimlarning mohiyati va mazmuni, ularning turlarini talqin etish masalalarini tartibga soluvchi qonunchilik normalari hamda ilmiy-nazariy jihatlari va ushbu sohadagi huquqni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq muammolar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni olib borishda tarixiy va tizimli usul, analiz va sintez usuli, qiyosiy-huquqiy va tahlil qilish usuli, normativ-huquqiy va amaliy tahlil usuli, umumlashtirish, mantiqiylik, tahlil qilish metodi asosida rasmiy hujjatlar va ma'lumotlarni tizimli o'rganish hamda xorijiy qiyosiy tahlil kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

"Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi" bilan kafillik shartnomasi majburiyatlar bajarilishining ta'minoti sifatida tuzilganida undirishni

boshqa usullarini qo'llash mumkin bo'lmagandagina, kreditor Jamg'armaga talab bildirish huquqiga egaligi asoslantirilgan;

lizing subyektlari tomonidan majburiyatlar lozim darajada bajarilmaganligi bilan bog'liq nizolarni hal etishda sudlar lizing shartnomasi shartlarini chuqur o'rganishlari lozimligi asoslangan;

ko'chmas mol-mulkka nisbatan huquq begonalashtirilganda u joylashgan yer uchastkasining ijarasi bo'yicha huquq va majburiyatlar ham ijara beruvchining roziligisiz o'tkazilishi asoslab berilgan;

elektron onlayn-auksion asosida qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yer uchastkalarini ijara huquqi boshqa shaxslarga asosiy shartnomaning muddati davomida qayta ijaraga berilishi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ta'minlovchi bitimlar bo'yicha yagona yondashuvni shakllantirish, bunda kreditorning mulkdorlik maqomi qarzdor zimmasidagi majburiyatni to'liq bajarguniga qadar amal qilishi asoslangan;

ta'minlovchi bitimlarda kreditor manfaatlarini undiruvni ta'minlash narsasiga qaratishning soddalashtirilgan tartibini ishlab chiqish zarurligi asoslantirilgan;

ta'minlovchi bitimlarning turlari bo'lgan lizing, qayta sotib olish, nasiyaga savdoga oid qonunchilik normalarini takomillashtirish bo'yicha takliflarni FKga kiritish asoslab berilgan;

ta'minlovchi bitimlarda ochiqligi va oshkoraligini ta'minlash, bunda garov reyestrda ta'minlovchi bitimlarni qayd etish orqali kreditor va uchinchi shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish mumkinligi asoslatirilgan;

ta'minlovchi bitimlarda qarzdor tomonidan majburiyat bajarilmaganida ta'minlash obyektining kreditor tomonidan qaytarib olinishining aniq chegaralarini belgilash lozimligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingani, xalqaro tajriba va milliy qonun hujjatlarining o'zaro tahlil qilingani, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya ishining ilmiy ahamiyati xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash masalalarini qo'llashni o'rganishda, hozirgi zamon tendensiyalarini inobatga olgan holda talaba va izlanuvchilarning bilim hamda ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan va majburiyatlar bajarilishi ta'minlash bilan bog'liq o'quv mashg'ulotlari doirasida foydalanishda hamda sohaga doir muammolar yuzasidan yangi ilmiy tadqiqotlar olib borishda namoyon bo'ladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalaridan O'zbekiston Respublikasining huquqiy ta'sir chorasini qo'llashga doir qonunchiligini takomillashtirishda, "Fuqarolik huquqi", "Majburiyat huquqi" fanlarini o'qitishda va ushbu fanlar bo'yicha yoziladigan darsliklar hamda o'quv qo'llanmalarini yaratishda hamda ma'ruza matnlarini, o'quv kurslarining dasturlarini tuzishda, ilmiy-tadqiqot ishlarida hamda fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ta'minlovchi bitimlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

“Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi” bilan kafillik shartnomasi kredit shartnomasi bo‘yicha majburiyatlar bajarilishining ta‘minoti sifatida tuzilganida undirishni boshqa usullarini qo‘llash mumkin bo‘lmagandagina, kreditor Jamg‘armaga talab bildirish huquqiga egaligiga oid taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2020-yil 3-iyuldagi 12-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarorining 1-bandini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining 2024-yil 24-maydagi 08/453-24-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi qarzdorlar tomonidan majburiyatlar bajarilmaganida tadbirkorlik subyektlari maanfaatlarini ishonchli ta‘minlash tizimini yaratishga xizmat qilgan;

lizing subyektlari tomonidan majburiyatlar bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi bilan bog‘liq nizolarni hal etishda sudlar lizing shartnomasi shartlarini chuqur o‘rganishlari lozimligiga oid taklif O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 20-fevraldagi 6-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda ba‘zi qarorlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish haqida”gi qarori 11-bandi asosida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining 2024-yil 24-maydagi 08/453-24-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi ta‘minlovchi bitim sifatida lizing shartnomasiga oid nizolarni hal etishda sudlar tomonidan taraflarning huquq va majburiyatlarini qo‘llash samaradorligini oshishiga zamin yaratgan;

ko‘chmas mol-mulk va unga bo‘lgan huquq begonalashtirilganida u joylashgan yer uchastkasiga nisbatan ijara huquqi ham boshqa shaxsga ijaraga beruvchining roziligisiz o‘tishi haqidagi taklif “Ijara to‘g‘risida”gi Qonunga 81-modda sifatida O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 23-oktabrdagi “Yer to‘g‘risidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ–871-son Qonunining 2-moddasi asosida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining 2024-yil 5-noyabrdagi 37-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi ko‘chmas mulkka nisbatan ijara huquqi ikkilamchi tusga ega ekanligi borasida aniq qoida shakllantirgan;

elektron onlayn-auksion orqali qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini qayta ijaraga berish asosiy ijara shartnomasi muddatiga qadar amal qilishi bo‘yicha taklif “Ijara to‘g‘risida”gi Qonunga 81-modda sifatida O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 23-oktabrdagi “Yer to‘g‘risidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ–871-son Qonunining 2-moddasi asosida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining 2024-yil 5-noyabrdagi 37-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi asosiy ijara va qayta ijaraning amal qilishi muddatlari borasida yagona to‘xtamga kelish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning natijalari 5 ta, jumladan 2 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan, 9 ta (2 tasi xorijda) maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, o’nta paragrafdan iborat uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 152 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo’nalishlariga bog’liqligi, mavzu bo’yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o’rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan aloqasi, uning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ta’minlovchi bitimlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solishning umumiy tavsifi”** deb nomlangan birinchi bobida ta’minlovchi bitim tushunchasi va uning mohiyati, ta’minlovchi bitimlar qo’llanilish sohalarining tavsifi, ta’minlovchi bitimlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish asoslarining rivojlanishi kabi masalalar tahlil qilingan.

Fuqarolik-huquqiy bitimlar ko’plab mezonlar, belgilar va shartlar asosida turlarga bo’linadi, tavsiflanadi va tasniflanadi. O’z navbatida, bitimlar tuzilish maqsadi, yo’naltirilganligi hamda qo’llanilishdan kutiladigan natijalariga qarab ham turlicha masalalarni qamrab oladi. Biroq bitimlarning shunday toifasi mavjudki, bunday bitimlarning mazmunidayoq majburiyatning bajarilishi, aniqrog’i kreditor manfaatlari ta’minlanadi. Shu sababli bu turdagi bitimlar “ta’minlovchi bitimlar” – deb yuritiladi. Bu bitimlarning maqsadi majburiyatlarning bajarilishi ta’minlash emas, balki “kreditorning huquq va manfaatlari”ni ta’minlash sanaladi. Boshqacha aytganda, bu turdagi bitimlarda qarzdorning o’z zimmasidagi majburiyatni to’liq bajarish shart hisoblanmaydi, shunchaki kreditorlarning huquq va manfaatlari ta’minlanishining o’zi kifoya qiladi.

Ta’minot berish garov narsasini garovga beruvchining egaligida (noposessor garov) qoldirish taqiqlangan xorijiy huquqiy tizimlarda paydo bo’ldi. Shu sababli, hozirda ko’plab mamlakatlar ushbu ta’minot modellaridan faqat bittasi mavjud bo’lish huquqini tan olishadi. Masalan, Germaniyada noposessor garov taqiqlangan, biroq ta’minlovchi ashyoni topshirishga ruxsat berilgan va Gollandiyada, aksincha, faqat noposessor garovga ruxsat berilgan. Shuningdek, ushbu huquqiy institutlar (noposessor garov va ta’minlovchi bitimlar) birgalikda amal qiladigan mamlakatlarning uchinchi guruhi (Ispaniya, Polsha, Chernogoriya) ham mavjud. Uchinchi guruhga 2018-yildan boshlab O’zbekiston Respublikasi ham qo’shildi.

Dissertatsiyada ta’minlovchi bitimlarning tushunchasiga oid ko’plab olimlarning (S. Sarbash, V. Zorin, B.M. Gongalo, Ye.R. Usmanova, R.S. Bevzenko, N.F. Imomov, D.B. Raximov) fikrlari tahlil qilinib, ta’minlovchi bitimda mol-mulkka nisbatan tasarruf etish huquqini kreditorida shartnoma amal qilib turish

vaqtigacha saqlanib qolishi hamda qarzdor tomonidan pul majburiyati bajarilib bo‘linganidan keyin kreditorning ta‘minlash narsasi bo‘lgan mol-mulkka nisbatan tasarruf etish huquqi bekor bo‘lib, mulk huquqi to‘liq qarzdorga o‘tishini anglatuvchi konstruksiyani tushunish lozimligi asoslantiriladi va ta‘minlovchi bitim tushunchasining mualliflik ta‘rifi ishlab chiqiladi.

Bugungi kunda ta‘minlovchi bitimlarning qo‘llanilish sohalari ancha keng va rangbarangdir. Bu o‘z navbatida dunyo iqtisodiyotidagi globallashuv, iqtisodiy munosabatlarning liberallasuvi hamda fuqarolik muomalasidagi erkinlikning kengayishi bilan ham bog‘liqdir. Albatta, bitimning mohiyatida kreditor manfaatlarini ta‘minlash yotishi bevosita uning mazmunidan anglashiladi. Shu sababli bunday bitim iqtisodiy aylanmaning qaysi yo‘nalishlari va sohalarida tuzilishi bevosita taraflarning o‘zaro kelishuvi bilan anglashiladi.

Hozirda ta‘minlovchi bitimlar bilan bog‘liq munosabatlar va sohalar sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin: 1) dyebitor qarzdorlik; 2) uskunalar va xom-ashyo tovarlari; 3) intellektual mulk huquqi; 4) sanoat va qishloq xo‘jaligi uskunalari; 5) uzoq muddatli foydalaniladigan iste‘mol tovarlari; 6) qishloq xo‘jaligi mahsulotlari; 7) transport vositalari.

Dissertatsiyada ta‘minlovchi bitimlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish asoslarining rivojlanish genezisi qadimgi Rim huquqi, o‘rta asrlar Yevropasida ta‘minlovchi bitimlarning qo‘llanilishi, bugungi xorijiy mamlakatlarda ushbu bitimlarning ifodalanishi hamda O‘zbekiston qonunchiligida mazkur bitimlarning tartibga solinishiga oid tahlillar amalga oshirilgan. Bunda 2013-yil 10-oktabrdagi “Garov reyestri to‘g‘risida”gi O‘RQ–356-son qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-noyabrdagi PQ–4026-son “Kreditorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda 2023-yil 29-apreldagi PF–63-son “Kreditorlarning garov bilan ta‘minlangan talablarini qanoatlantirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni tahlil qilingan.

“Ta‘minlovchi bitimlar turlarining qo‘llash muammolari” – deb nomlangan tadqiqot ishining ikkinchi bobida ta‘minlovchi bitimlar tizimi va ularning turlarga bo‘lishning mezonlari, ta‘minlovchi bitim sifatida lizing shartnomasining o‘ziga xos jihatlari, oldi-sotdi munosabatlarida ta‘minlovchi bitimlarning amal qilish muammolari, ijara va ta‘minlovchi bitimlarning boshqa turlariga umumiy tavsif kabi masalalar o‘rganilgan.

Dissertatsiyada ta‘minlovchi bitimlarni turlarga bo‘lish mezonlariga bo‘yicha olimlar (N.Yu. Rasskazova, N. Beale, M. Bridge, L. Gullifer, E. Lomnicka, J. Hage, B. Akkermans, A.G. Karapetov, A.I. Savelyev) va Yevropa Parlamenti va Kengashining 2002-yil 6-iyundagi “Moliyaviy ta‘minlovchi kelishuvlar to‘g‘risida”gi 2002/47/YeI sonli Direktivasi (Directive 2002/47/EC of the European Parliament and of the Council of 6 June 2002 on financial collateral arrangements) hamda milliy qonunchilik tahlil qilinib, ta‘minlovchi bitimlarning lizing, bo‘lib-bo‘lib to‘lash, ijara, qayta sotib olish sharti bilan sotish, repo va shu kabi boshqa turlarga bo‘linishi asoslantirilgan.

Lizing huquqiy munosabat sifatda mol-mulkni boshqa shaxsga o‘tkazishning muayyan muddat davom etadigan va mol-mulk haqqi darhol va uzil-kesil hisob-kitob qilinmaydigan konstruksiyalardan biri sanaladi. Odatda lizing tadbirkorlik

faoliyati uchun zarur bo'lgan uskunalar va vositalarni ularga ehtiyoji mavjud bo'lgan shaxs (lizing oluvchi) uchun mazkur uskunalarni ishlab chiqaruvchisi yoki sotuvchisidan sotib olish va muayyan to'lovlar evaziga foydalanishga berish sanaladi. Tadbirkor uchun tegishli uskunani sotib olib foydalanishga topshiruvchi shaxs esa lizing beruvchi sanaladi. Shu sababli ishda lizingning ta'minlovchi bitim sifatidagi mohiyati va xususiyatlari tadqiq qilinadi.

Muallifning fikricha, oldi-sotdi munosabatlarida tovar haqini keyinchalik yoki bo'lib-bo'lib to'lashning ta'minlovchi bitim sifatidagi mohiyati ham aynan tovar haqi to'liq to'lab bo'linmaguniga qadar mulk huquqining sotuvchida saqlanib turishi bilan belgilanadi. Qoidaga ko'ra tovar haqini bunday usullarda to'lanishida ham titulli ta'minlash namoyon bo'ladi. Dissertatsiyada tovar haqini bo'lib-bo'lib to'lash, nasiyaga tovar sotish, sotilgan tovar taqi to'languniga qadar mulk huquqini sotuvchida saqlanib turishi konstruksiyalarining ta'minlovchi bitimlar sifatidagi mohiyati bir qator olimlar (Z.S. Belyayeva, M.I. Kozir, M.I. Braginskiy, V.V. Virtyanskiy)ning fikrlari asosida tahlil qilingan. Shuningdek amalga oshirilgan tahlillar asosida muallif FKning 422-moddasiga qo'shimcha kiritish taklifini asoslantiradi. Tadqiqot ishida sotib olish bahosi to'languniga qadar sotuvchi ashyoning mulkdori bo'lib qolishi, sotib oluvchi esa shartli mulk huquqining sohibiga aylanishi, mazkur huquqi german doktrinasida kutish huquqi (Anwartschaftsrechte) ekanligi tahlil qilinadi.

Ijara munosabatlariga oldi-sotdining elementlari qo'shilishi o'z navbatida, ijaraga olingan mol-mulkni sotish olish sharti bilan shartnoma tuzilishiga asos bo'ladi. Qoidaga ko'ra bunday konstruksiya "keyinchalik sotib olish sharti bilan ijara" yoki "ijaraga olingan mol-mulkni sotib olish" deb nomlanadi. Ushbu konstruksiyalarning maqsadi alaloqibat ijaradan boshlangan huquqiy munosabatni oldi-sotdi bilan yakunlash sanaladi. Rus tilida "выкуп" (hire purchase) deb nomlanadigan mazkur munosabatda taraflar kelishuvi asosida ijaraga berilgan mol-mulk ijaraga oluvchi tomonidan sotib olinishi mumkin.

Ishda ta'minlovchi bitimlarning boshqa turlari sifatida REPO va qayta sotib olish sharti bilan sotish konstruksiyalari tahlil qilinadi. Bunda REPO bitimlarini tuzish natijasida kreditor qimmatli qog'oz ko'rinishidagi mulk shaklida ta'minlashga ega bo'ladi. REPO bitimlarining o'zini esa fuqarolik huquqidagi nomlangan shartnomalar jumlasiga kiritish mumkin va bunday ta'minlash vositasi odatda manfaatdor tomonni harakat qilishga undaydi va uning harakatsizligi mol-mulkka nisbatan huquqlarni yo'qotishiga olib keladi.

Ta'minlovchi bitimlarning yana bir turi sifatida odatdagi qayta sotib olish sharti bilan sotishni kiritish mumkin. Nomlanmagan shartnomalarning mazkur turi taraflarning o'zaro kelishuvi asosida biror-bir ashyoni, masalan, ko'chmas mol-mulkni qayta sotib olish sharti bilan sotilishi mumkin. Bu turdagi ta'minlovchi bitim konstruksiyalari Gruziya, Fransiya, Turkmaniston kabi davlatlar qonunchiligida amal qiladi. Tadqiqot ishida amalga oshirilgan tahlillar asosida FKga 29-bobga 1¹- § sifatida "qayta sotib olish" nomli paragrafni kiritish va unda qayta sotib olishga oid 424¹-424⁶-moddalar sifatida "qayta sotib olish shartnomasi, qayta sotib olish bahosi, sotib oluvchining sotib olingan tovarga nisbatan majburiyatlari, qaytib sotib olishdan oldin yetkazilgan zararni qoplash, qaytib sotib olishdan oldin tovarni

begonalashtirishning haqiqiy emasligi, qaytib sotib olish muddati” kabi moddalarni ifodalash taklif etiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi – **“Ta’minlovchi bitimlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish”**ga bag’ishlangan bo’lib, unda garov reyestrining ta’minlovchi bitimlarni amalga oshirilishida tutgan o’rin va ahamiyati, ta’minlovchi bitimlarga oid xorijiy mamlakatlar tajribasining tahlili, ta’minlovchi bitimlariga oid qonunchilik va huquqni qo’llash amaliyotini takomillashtirishning tahlili amalga oshirilgan.

Majburiyatlar bajarilishi ta’minlashda ta’minlovchi bitimlarni e’tirof etish va qo’llashning o’zi yetarli bo’lmaydi. Ko’pincha ko’char mol-mulklar ta’minlovchi bitimning predmeti bo’lgan hollarda bunday mol-mulklar ta’minlash vositasiga aylanganligi uchinchi shaxslar tomonidan bilish imkoniyati mavjud emas. Bu esa o’z navbatida ta’minlash narsasi bo’lgan ko’char ashyolarning kreditor va qarzdor o’rtasidagi munosabat doirasidan tashqariga chiqib ketishiga, ya’ni uchinchi shaxslarga o’tkazilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli ta’minlovchi bitimlarni muayyan darajada qayd etish, bunday bitimlar bo’yicha kreditor va qarzdorlarning muayyan reyestirini yuritish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyada ta’minlovchi bitimlarni qayd etish munosabatlarini huquqiy tartibga soluvchi muhim manba – garov reyestrining mohiyati boraisda olimlar (F. Heywood, M. Safavian, L. Jose, A.R. Mian, I.R. Rustambekov, V.L. Xarseyeva)ning fikrlari tahlil qilinib, ko’char mol-mulklarni qarzdor-garovga qo’yuvchida qoldirish mexanizmiga asoslangan garov “ommaviylik” prinsipiga asoslanishi va bunday garov tegishli ravishda muayyan reyestrda yuritilishi lozimligi bo’yicha xulosaga kelinadi.

Ishda ta’minlovchi bitimlarga oid xorijiy mamlakatlar (Germaniya, AQSH, Kanada, Avstriya, Angliya) tajribasi va olimlar (K. Yost, U. Xuber, A. Karl, G. Braun, X. Kosiol, A. Velzer) ning fikrlari tahlil qilinadi. Muallifning xulosa qilishicha, xorijiy mamlakatlarda ta’minlovchi bitimlarning qo’llanilishi va ularning amal qilishi iqtisodiy aylanmani kengaytirish, savdo munosabatlarini rivojlantirish, fuqarolik muomalasi barqarorligini ta’minlash hamda kreditor va uchinchi shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilishning o’ziga xos konstruksiyasi sifatida qo’llaniladi. Bu esa o’z navbatida, ta’minlovchi bitimlar konstruksiyasini aniqlashtirish, qarzdor zimmasidagi majburiyatni lozim darajada bajarishiga undash hamda qonunchilik darajasida zarur bo’lgan vositalarni o’rnatish muhim o’rin tutadi.

Ishda keltirilishicha, ta’minlovchi bitimlar doirasini belgilab olish ham bugungi kunda huquqshunoslik nazariyasi va amaliyoti uchun muhimdir. Qarz majburiyatini ta’minlovchi bitimlarni majburiyat bajarilishini ta’minlovchi usuli sifatida qo’llash masalalarini aniqlashtirish zarurati mavjud. Chunki, odatdagi lizing, nasiyaga tovar sotish, ijara kabi shartnomalarning ta’minlovchi bitimga aylanishi qaysi vaziyatda yuz berishi hamda ular qo’llaniladigan fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralari o’rniga undiruv usulining qo’llanilishi fuqarolik huquqi nuqtai nazardan qanchalik o’rinli ekanligini ham ko’rib chiqish lozim. Shu munosabat bilan dissertatsiyada FKning 259, 589, 590, 591-moddalariga qo’shimcha va o’zgartirish kiritish hamda FKni “Lizing obyektining saqlanishini ta’minlash va uni qaytarish” nomli 596¹-moddani kiritish taklif etiladi.

XULOSA

Ta'minlovchi bitimlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solinishining tahlili asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. Amalga oshirilgan tahlillar asosida ta'minlovchi bitim tushunchasiga quyidagi mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi: fuqarolik huquqida ta'minlovchi bitimlar deganda, majburiyatlarning bajarilishini qarzdor yoki uchinchi shaxsning mol-mulkiga nisbatan kreditorga titulni (huquqiy titulni) berish orqali ta'minlanadigan huquqiy mexanizmlar tizimi bo'lib, bu majburiyatlarni bajarish uchun qo'shimcha kafolatlar yaratadi.

2. Ta'minot berish garov narsasini garovga beruvchining egaligida (noposessor garov) qoldirish taqiqlangan xorijiy huquqiy tizimlarda paydo bo'ldi. Shu sababli, hozirda ko'plab mamlakatlar ushbu ta'minot modellaridan faqat bittasi mavjud bo'lish huquqini tan olishadi. Masalan, Germaniyada noposessor garov taqiqlangan, biroq ta'minlovchi ashyoni topshirishga ruxsat berilgan va Gollandiyada, aksincha, faqat noposessor garovga ruxsat berilgan. Shuningdek, ushbu huquqiy institutlar (noposessor garov va ta'minlovchi bitimlar) birgalikda amal qiladigan mamlakatlarning uchinchi guruhi (Ispaniya, Polsha, Chernogoriya) ham mavjud. Uchinchi guruhga 2018-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi ham qo'shildi.

3. Xorijiy doktrinada "titulli ta'minlash" bo'yicha ko'plab adabiyotlar bunday terminga (bir vaqtning o'zida "title" va "security" tushunchalarini o'zida ifodalaydigan) asoslanilmaydi. Aksincha bu o'rinda mulohazalar ko'pincha ta'minlash va turli xildagi titulli konstruksiyalarning: Security vs. Quasi-security, Security vs. Title-based financing, Security vs. Retention of ownership devices qarama-qarshiligiga quriladi. Shu sababli ta'minlovchi bitimlar asosida majburiyatlar bajarilishi ta'minlashning an'anaviy usullarga nisbatan kvazi ta'minlash usullari sifatida talqin etish mumkin.

4. Ashyoviy ta'minlash huquqining dualizmi aksariyat mamlakatlarda hanuzgacha mavjud, chunki garov va ipoteka – majburiyat bilan yuklangan mol-mulkni saqlashning ikki xil rejimidir: garov – bu mulkni kreditorga o'tkazish bilan bog'liq yuk, ipoteka – bu mulkni kreditorga o'tkazmasdan yuzaga keladigan yukdir. Bu yukning oshkoraligini ta'minlashning turli usullariga olib keladi: garov bilan oshkoralik mulkni topshirish bilan, ipoteka bilan esa huquqni mulk huquqi reyestrda ro'yxatdan o'tkazish orqali ta'minlanadi. O'zbekiston huquqi ham garov, ham ipotekadan foydalanadi. Ammo O'zbekiston huquqida dualizm tushunchasi nomuvofiq tarzda ifodalangan: garov bilan egalik qilish o'tkazilishi mumkin, ammo de lege ferenda garovga noposessorlik prezumpsiyasini o'rnatadi. Ipotekada esa ashyoga egalik qilish kreditorga o'tkazilmaydi.

5. Huquqni ta'minlovchi o'tkazish, ya'ni ta'minlovchi bitimlarning zamonaviy konstruksiyasi rim huquqida ma'lum bo'lgan noposessor garov va fidusiar mulk g'oyasining ikki asrlik rivjlanishi natijasida yuzaga keldi. Mazkur konstruksiyaning vujudga kelishi aniq tarixiy sabab – birinchi jahon urishi asos bo'ldi. Bundan tashqari, uning vujudga kelishi olmon milliy huquqining o'ziga xosligi, aynan noposessor garovning to'g'ridan to'g'ri ta'qiqlanganligi bilan ham bog'liqdir.

6. Doktrinada kvazi ta'minlashlarning quyidagi turlari ajratilishi asoslab berilgan:

- 1) titulni topshirishni yoki ushlab turishni o'z ichiga oladigan mexanizmlar;
- 2) titulni topshirishni yoki ushlab turishni nazarda tutmaydigan mexanizmlar.

7. Sivilistikada titulli ta'minlash, ya'ni ta'minlovchi bitimlarni ifodalash uchun turli terminlar qo'llaniladi. Masalan, huquqiy titulni (mulk huquqini) ta'minlovchi topshirish, huquqiy titulni fidusiar topshirish, kvazita'minlash (quasi-security), avtiavlarni topshirish asosida moliyalashtirish (asset-based finance), titulli moliyalashtirish (title finance), sotuvchi yoki ijaraga beruvchiga taqdim etilgan ta'minlash (vendor or lessor security), aktivlarni qo'lga kiritish moliyalashtirish (acquisition financing) va boshqalar.

